



TOSHKENT VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI INVESTITSIYA VA QURILISH STATISTIKASI BO'LIMI

2019 yilning yanvar oyida
QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari

hajmi -

190,1 mlrd.so'm

Yirik pudrat
tashkilotlari ulushi

- 16,3 %

Kichik tashkilotlar
va mikrofirmalar

ulushi -

40,4 %

Norasmiy sektor
ulushi -

43,3 %

Joriy yilning yanvar oylarida Toshkent viloyatida jami 190,1 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99.5 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 31,0 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 16.3% hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104.0 % ni

tashkil etdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 40.4 % yoki 76,9 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,3 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 43.3 % yoki 82.2 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 82.4 %ni tashkil etdi.

Yirik pudrat tashkilotlari

- hajmi-31,0 mlrd.so'm
- o'sish surati-104.0 %

Kichik tashkilotlar
va mikrofirmalar

- hajmi-76,9 mlrd.so'm
- o'sish surati - 121,3 %

Norasmiy sektor


- hajmi 82,2 mlrd.so'm
- o'sish surati - 82,4%



IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI

mlrd.so'm

■ 2019 yil yanvar ■ 2018 yil yanvar



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 157.4 (mlrd) so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi nisbatan 24.7 mlrd so'mga ko'paygan.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 8.6 (mlrd) so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2.5 (mlrd) so'mga ko'paygan.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 24.1 (mlrd) so'mni tashkil etib, o'tgan yil davriga nisbatan 7.9 (mlrd) so'mga ko'paygan.



Yanvar oyida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




Yanvar oyida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 17,7 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 % ga ko'paydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 30,1 % (4,3 % ga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi 52,2 % ni (4,7 % ga kamaydi) tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 36,2 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,7 % ga kamaydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 63,8 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,7 % ga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga 100 % to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi.



2019 yil yanvar oyida hududlar bo'yicha qurilish pudrat ishlari hajmi



Qurilish-pudrat ishlari hajmida hududlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Zangiota tumani, yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish-pudrat ishlari hajmi yanvar oyida 18,5 mlrd.so'm yoki o'tgan yilga nisbatan 102,0 %ga bajarildi.

	Jami		
	mlrd.so'm	2018 yil yanvarga nisbatan % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi
Toshkent viloyati	190,1	99,5	100,0
Nurafshon shahri	5,9	96,8	3,1
Olmaliq shahri	11,6	100,5	6,1
Angren shahri	7,4	103,4	3,9
Bekobod shahri	9,6	100,8	5,0
Ohangaron shahri	7,1	100,6	3,7
Chirchiq shahri	6,7	100,4	3,5
Yangiyo'l shahri	3,6	87,8	1,9
Oqqo'rg'on tumani	6,0	95,1	3,2
Ohangaron tumani	5,9	82,2	3,1
Bekobod tumani	6,8	94,3	3,6
Bo'stonliq tumani	9,1	101,7	4,8
Bo'ka tumani	5,1	95,9	2,7
Zangiota tumani	18,5	102,0	9,8
Qibray tumani	17,9	101,7	9,4
Quyichirchiq tumani	4,8	101,0	2,5
Parkent tumani	9,0	102,9	4,7
Piskent tumani	4,8	100,8	2,5
O'rtachirchiq tumani	10,8	98,4	5,7
Chinoz tumani	7,0	99,9	3,7
Yuqorichirchiq tumani	12,0	101,5	6,3
Yangiyo'l tumani	9,1	99,7	4,8
Toshkent tumani	11,4	104,0	6,0





Shuningdek, qurilish-pudrat ishlari hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

- Qibray tumanida (17,9 mlrd. so'm yoki 101,7 %), Yuqorichirchiq tumanida (12,0 mlrd. so'm yoki 101,5 %), Olmaliq shahrida (11,6 mlrd. so'm yoki 100,5 %) va Toshkent tumanida (11,4 mlrd. so'm yoki 104,0 %) bajarilgan.


Qurilish-pudrat ishlari hajmining eng past darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Yangiyo'l shahrida (3,6 mlrd. so'm yoki 87,8 %), Ohangaron tumani (5,9 mlrd. so'm yoki 82,2 %) va Nurafshon shahrida (5,9 mlrd. so'm yoki 96,8 %) qurilish-pudrat ishlari amalga oshirildi;





2019 yilning yanvar oyida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Zangiota tumanida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 9,8 %ini, Qibray tumanida 9,4 %ni va Yuqorichirchiq tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 6,3 %ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Yangiyo`l shahrida bu ko`rsatkich eng past 1,9 %ni tashkil etdi. Shuningdek, Quyichirchiq va Piskent tumanlarida 2,5 %dan tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



“Investitsiya va qurilish statistikasi” bo`limi

Nashirga mas`ul: B. Djavliyev

Tel.: 230-86-70, (71)